



THE IMPORTANCE OF CORPORATE SOCIAL RESPONSIBILITY IN INVESTMENT PROJECTS AND ENSURING THE RIGHTS OF LOCAL POPULATIONS

Joldasbayeva Gulimkhan

Tashkent State University of Law

Master's degree in Business Law.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314250>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Corporate Social Responsibility
Investment projects
Sustainable development
Local community rights
Environmental safety

ABSTRACT

This article discusses the concept of corporate social responsibility, its importance in investment projects, its directions, aspects of corporate social responsibility such as social sustainability, environmental and economic responsibility. In addition, the necessary legal framework for protecting the rights of local residents, its main principles, namely the principle of freedom, the principle of environmental sustainability and the principles of protecting cultural and historical heritage, as well as the socio-economic impact of investment projects on the lives of local residents, was analyzed.

ВАЖНОСТЬ КОРПОРАТИВНОЙ СОЦИАЛЬНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ОБЕСПЕЧЕНИЕ ПРАВ МЕСТНОГО НАСЕЛЕНИЯ

Жолдасбаева Гулимхан

Ташкентский государственный юридический

университет магистра в Бизнес права

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314250>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2025

Accepted: 29th April 2025

Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Корпоративная социальная ответственность
Инвестиционные проекты
Устойчивое развитие
Права местного населения
Экологическая безопасность

ABSTRACT

В статье рассматривается понятие корпоративной социальной ответственности, ее значение в инвестиционных проектах, ее направления, а также такие аспекты корпоративной социальной ответственности, как социальная устойчивость, экологическая и экономическая ответственность. Кроме того, была проанализирована необходимая правовая база для защиты прав местного населения, включая основные принципы свободы, экологической устойчивости и охраны культурного и исторического наследия, а также социально-экономическое влияние инвестиционных проектов на жизнь местного населения.



INVESTITSIYA LOYIHALARIDA KORPORATIV IJTIMOY MAS'ULIYATNING AHAMIYATI VA MAHALLIY AHOLI HUQUQLARINI TAMINLASH

Joldasbayeva Gulimxan

Toshkent davlat yuridik universiteti
Biznes huquqi yo'nalishi magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15314250>

ARTICLE INFO

Received: 24th April 2025
Accepted: 29th April 2025
Online: 30th April 2025

KEYWORDS

Korporativ ijtimoiy mas'uliyat
Investitsiya loyihalari
Barqaror rivojlanish
Mahalliy aholi huquqlari
Ekologik xavfsizlik

ABSTRACT

Ushbu maqolada korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi, uning investitsiya loyihalaridagi ahamiyati, yo'nalishlari, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ijtimoiy barqarorlik, ekologik va iqtisodiy mas'uliyat kabi jihatlari yoritilgan. Bundan tashqari, mahalliy aholi huquqlarini himoya qilish, undagi asosiy tamoyillar yani, erkinlik, ekologik barqarorlik tamoyili va madaniy va tarixiy merosni himoya qilish tamoyillari, shuningdek investitsiya loyihalarining mahalliy aholi hayotiga ijtimoiy-iqtisodiy tasiri bo'yicha zarur huquqiy asoslar tahlil qilindi.

Bugungi kunda dunyo miqyosida har bir davlatning iqtisodiy tomondan rivojlanishida va tashqi iqtisodiy faoliyatini yana da rivojlantirishda milliy va xorijiy investitsiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan malumotlarga ko'ra, 2024-yil yakuniga ko'ra jalb qilingan investitsiyalarning umumiy hajmi 333,8 trln so'm tashkil qilgan. "Rivojlanayotgan mamlakatlarning o'tkir ijtimoiy va ekologik tahdidlarini hal etishda ko'p tomonlama moliya institutlari muhim orin tutadi. O'zbekiston ustuvor investitsiyaviy va ijtimoiy loyihalarni amalga oshirishda xorijiy davlatlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatishni rejalashtirgan. Biz, innovatsiya, raqamli iqtisodiyot, "yashil taraqqiyot" va energetika, to'siqlarsiz elektron tijorat kabi sohalarda amaliy hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdormiz."¹ Hozirgi vaqtda yurtimizda xorijiy va mahalliy investitsiyalar ishtirokidagi investitsiyalarning o'sib borishidan bu mavzuning qay darajada muhim ekanligini anglash qiyin emas.

1998-yildan 2012-yilgacha bo'lgan davrda AQShning 3000 dan ortiq individual firmalarida kuzatuvlar o'tkazilgandan so'ng, olingan natijalarga ko'ra, kompaniyaning qiymatini oshirishda korporativ ijtimoiy mas'uliyat muhim rol o'ynashi tasdiqlangan. Investitsiya samaradorligini oshirishda xodimlar bilan munosabatlari, mahsulot xususiyatlari, atrof-muhit va ekologik xilma-xillikni hurmat qilish investitsiya samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.² Ijtimoiy, ekologik, axloqiy va iqtisodiy say-harakatlarni o'z ichiga olgan korporativ harakatlarning shaffofligi korxonalar uchun barqaror rivojlanishga, brend obro'sining oshishiga va istemolchilarning ijobiy fikr bildirishiga yordam beradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "BRICS plus" formatidagi sammitda so'zlagan nutqi. 24.10.2024

² Mohammad Bitar and Mohammad Benlemlih. Corporate Social Responsibility and Investment Efficiency. (January 1, 2015). Journal of business Ethics, Forthcoming Available at SSRN.

https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=2566891



Barqaror rivojlanish bo'yicha Butun jahon ishbilarmonlar kengashi korporativ ijtimoiy mas'uliyatni tadbirkorlik faoliyatining va mahalliy hamjamiyatning taraqqiy etishiga yordam berishini, iqtisodiy o'sishga hissa qo'shishini takidlab o'tishgan. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi 1960-yillardan boshlab ommalasha boshladi va hozirgi vaqtda ham global miqyosda, shuningdek O'zbekistonda ham muhim ahamiyatga ega. Global miqyosda ekologik xavf-xatarlar, muammolar, ishchilar huquqlari bilan bog'liq muammolar sharoyitida tadbirkorlar bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat dastlab xayriya va homiylik faoliyati shaklida namoyon bo'ldi. Hozirgi vaqtda esa atrof-muhitni muhofaza qilish, ishchilar huquqlarini himoya qilish, mahalliy aholi huquqlarini himoya qilish va ularga hurmat bilan qarash va boshqa yo'nalishlardan iborat. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat tushunchasi asosan notijorat tashkilotlariga, yani tijorat korxonalari, korporაციyalar, firmalar va kompaniyalarga nisbatan qo'llaniladi. Lekin u notijorat tashkilotlari, davlat idoralari, nodavlat tashkilotlar va munitsipal tashkilotlarga ham qo'llanilishi mumkin. Biznesni boshqarishning strategik konsepciyasi hisoblangan korporativ ijtimoiy mas'uliyat, xayriya va homiylik o'rtasidagi farqni aniqlash muhim. Bu qashshoqlikni kamaytirishga sezilarli hissa qo'shishi va kompaniyaning obro'si va brendini oshirishi mumkin.³

Global miqyosda korporativ ijtimoiy mas'uliyat butun dunyo bo'ylab korxonalarining nafaqat manfaatdor tomonlarga balki jamiyat va atrof-muhitga ham foydali tarzda boshqarishga qaratilgan sa'y-harakatlarini anglatadi. Bu tushuncha dastlab korporativ ijtimoiy mas'uliyat emas balki ijtimoiy mas'uliyat deb atalgan. Howard R.Bounsning "Social responsibilities of the businessman" kitobi korporativ ijtimoiy mas'uliyatning vujudga kelishi, rivojlanishida muhim ahamiyatga ega manbalardan biri hisoblanadi. Uning takidlashicha bir necha yuzlab yirik korxonalar, firmalarning harakatlari fuqarolar hayotiga tasir qilishini inobatga olib ular korporativ boshqaruv mahalliy aholi huquqlarini hurmat qilishi lozim. Investitsiya loyihalarida korporativ ijtimoiy mas'uliyatning ahamiyati shundan iboratki, u loyiha nafaqat iqtisodiy balki ijtimoiy va ekologik jihatdan barqaror bo'lishini taminlaydi. Yani, mahalliy aholi bilan ijobiy munosabat o'rnatishga yordam beradi. Korporativ ijtimoiy mas'uliyat orqali kompaniyalar mahalliy aholi bilan ochiq muloqat qiladi, ularning ehtiyojlarini tushunadi va hisobga oladi. Bundan kompaniyaning ijobiy imidjini shakllantirishga yordam beradi. Ijtimoiy mas'uliyatli yondashuv kompaniyaga jamiyat, istemolchilar oldida ishonchli kompaniya sifatida shakllanishiga yordam beradi. Investitsiya loyihalari mamlakat yoki malum bir hudud taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. U jamiyat hayotiga ijtimoiy-iqtisodiy tomondan ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy tomondan ta'siri yangi ish o'rinlarini yaratiladi, mahalliy iqtisodiyot rivojlanadi, soliq tushumlari ko'payadi va hududda innovatsiyalar va texnologik yangilanish yuz beradi. Investitsiya loyihalari doirasida yangi korxonalar, ishlab chiqarish sohasining rivoji natijasida doimiy va vaqtincha ish o'rinlari yaratiladi, bu esa aholining bandligini taminlaydi. Yangi loyihalar orqali korxonalar va ishchilardan olinadigan soliq miqdori ortadi, bu esa davlat byudjetiga qo'shimcha mablag'lar kiritadi. Ijtimoiy tomondan ta'siri aholining turmush darajasi oshadi, ijtimoiy infra tuzulma rivojlanadi. Investitsiya loyihalari salbiy ta'sir

³ Corporate social responsibility and their types. <https://www.globalscienceresearchjournals.org/articles/corporate-social-responsibility-and-their-types.pdf>



ko'rsatishi ham mumkin. Yani u ijtimoiy va ekologik salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Jumladan, mahalliy aholini majburiy ko'chirish, atrof-muhitga salbiy ta'sir yani ifloslanish, suv tanqisligi va boshqalar. Investitsiya loyihalari doirasida mahalliy aholi o'z huquqlarini talab qilish huquqiga ega. Ular yashash joyiga egalik qilish, ekologik xavfsiz, toza suv va havoga ega hududda yashash, mahalliy aholining tarixiy-madaniy qadriyatlariga, obyektlariga hurmat ko'rsatish.

Xulosa qiladigan bo'lsak, korporativ ijtimoiy mas'uliyatning asosiy tamoyillari va shakllari kompaniyalarga ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy mas'uliyatlarni to'g'ri amalga oshirishda yordam beradi. Bu o'z navbatida, kompaniyaning uzoq muddatli muvaffaqiyatiga, obro'-e'tiborining oshishiga, hamda jamiyat va atrof-muhit bilan mustahkam aloqalar o'rnatilishiga olib keladi. Shuningdek, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va mahalliy aholi huquqlari o'rtasidagi uyg'unlik — barqaror investitsion rivojlanishning poydevori hisoblanadi. Agar bu ikkisi birgalikda, uyg'unlikda bo'lsa jamiyat ham, kompaniyalar ham ijobiy natijaga erishadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "BRICS plus" formatidagi sammitda so'zlagan nutqi. 24.10.2024
2. А.Е.Суханов., Сравнительное корпоративное право. 2014.
3. Mohammad Bitar and Mohammad Benlemlih. Corporate Social Responsibility and Investment Efficiency. (January 1, 2015). Journal of business Ethics, Forthcoming Available at SSRN.
4. Корпоратив хуқуқ. Рахмонкулов Ҳ.Р., Гулямов С.С. 2007. <https://library-tsul.uz/korporativ-u-u-ra-monkulov-r-gulyamov-s-s-2007/>
5. Xolmirzayev O'P., Milliy va chet el korporativ huquqida nazorat qiluvchi shaxslarning xo'jalik jamiyatlari majburiyatlari bo'yicha javobgarligi. Dissertatsiya ishi.
6. Corporate social responsibility and their types. <https://www.globalscienceresearchjournals.org/articles/corporate-social-responsibility-and-their-types.pdf>
7. Comparative company law. Andreas Cahn and David C.Donald. 2010. <https://www.cambridge.org/core/books/comparative-company-law/DBAE1FD0E8246C6E80AF3AA5A2A00C41>